



UDK(329.735(575.1))

Nurmuhammad QARSHIYEV,
O‘zMU “Siyosatshunoslik” kafedrasida dotsenti, PhD
E-mail:nurmuxammad.qarshiev@mail.ru

S.f.d., professor V.Qo‘chqorov taqrizi asosida

MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF INTER-PARTY DIALOGUE ON THE REALIZATION AND DEVELOPMENT OF NATIONAL IDENTITY IN THE CENTRAL ASIAN REGION

Annotation

In the conditions of today's globalization, preservation of national identity, ensuring the immortality of traditions and values that have been passed down from ancestors to generations for many centuries are becoming more and more important. As cultural values are considered as one of the factors of formation of ideologies of political parties, this problem is directly related to their activities.

The formation and development of nations in Central Asia are so closely related that in some cases there are cases that need to be clarified in terms of national identity, and in most cases in terms of cultural, educational, and ideological affiliation.

Key words: Central Asia, political party, ideology, cultural values, political culture, civil society, political consciousness, electorate, democracy.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРТИЙНОГО ДИАЛОГА ПО РЕАЛИЗАЦИИ И РАЗВИТИЮ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОМ РЕГИОНЕ

Аннотация

В условиях современной глобализации сохранение национальной идентичности, обеспечение бессмертия традиций и ценностей, передаваемых от предков к поколениям на протяжении многих столетий, становятся все более важными. Поскольку культурные ценности рассматриваются как один из факторов формирования идеологий политических партий, эта проблема напрямую связана с их деятельностью.

Формирование и развитие наций в Центральной Азии настолько тесно связаны, что в ряде случаев имеются случаи, требующие выяснения с точки зрения национальной принадлежности, а в большинстве случаев – с точки зрения культурной, образовательной и идеологической принадлежности.

Ключевые слова: Центральная Азия, политическая партия, идеология, культурные ценности, политическая культура, гражданское общество, политическое сознание, электорат, демократия.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA RIVOJLANTIRISH BORASIDA PARTIYALARARO MULOQOT DIOLOGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Bugungi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, ko‘p asrdan buyon ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan an‘ana va qadriyatlarni boqiyiligini ta‘minlash toboro dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Siyosiy partiyalarning mafkuralari shakllanishi omillaridan biri sifatida madaniy qadriyatlar qaralar ekan, bevosita ushbu muammo ular faoliyatida ham dolzarblik kasb etadi.

Markaziy Osiyoda xalqlarning shakllanishi va rivojlanishi bir – biri bilan shu qadar bog‘likki, ayrim hollarda milliy o‘zlik masalasida, aksariyat hollarda madaniy, ma‘rifiy, mafkuraviy tegishlilik nuqtai nazaridan aniqlashtirilishi zarur bo‘lgan holatlar mavjud.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, siyosiy partiya, mafkura, milliy o‘zlik, madaniy qadriyatlar, siyosiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, siyosiy ong, elektorat, demokratiya.

Kirish. Dunyo ilm fani xulosalaridan ma‘lumki, muayyan bir hudud yoki mintaqada davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanishida an‘ana va qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Milliy o‘zlikni anglash muammosi esa yuqoridagi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Markaziy Osiyo mintaqasida milliy o‘zlikni anglash va rivojlantirish borasida partiyalararo muloqot diologini rivojlantirish bugungi kunda toboro dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatini rivojini ta‘minlashdagi ahamiyatidan kelib chiqsak, ularning milliy o‘zlikni anglash, asrlar mobaynida ajdodlardan avlodlarga me‘ros bo‘lib o‘tib kelayotgan madaniy qadriyatlarni asrash dolzarbdir. Bugungi xalqaro siyosiy jarayonlar shunday bosqichga ko‘tarildiki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, bilim va ilg‘or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. XXI asr jahon xaritasida yangi mustaqil davlatlarning vujudga

kelishi xalqaro munosabatlarda yangi tartibotlarni ham olib kelmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida ham ko‘plab yangi davlatlarning paydo bo‘lganligi va bugungi kunda jadal rivojlanayotganligi nafaqat harbiy qudrat nuqtai nazaridan balki intellektual, madaniy, texnologik jihatlardan ham ilg‘orlashib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Markaziy Osiyo mintaqasi boshqa mintaqalar Yevropa, Janubiy Osiyo, Osiyo Tinch okeani mintaqalarining geosiyosiy joylashuvi nuqtai – nazaridan keskin farq qiladi yuqorida sanab o‘tilgan mintaqalar bevosita dengizga chiqish imkoniyatiga to‘g‘ridan – to‘g‘ri ega bo‘lib ularga rivojlanish uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni taqdim qilsa Markaziy Osiyo mintaqasi bunday imkoniyatga ega emas ya‘ni “qoulflangan mintaqa” hisoblanadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan Markaziy Osiyo mintaqasi geostrategik muhim hudud bo‘lib u sharq va g‘arb bog‘lovchi muhim nuqtada joylashgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dunyo siyosatshunosligida Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan mamlakatlarning siyosiy tizimi, partiyaviy tizimini tadqiq qilish borasidagi tadqiqotlar salmog'i ortib bormoqda. Mintaqada milliy o'zlikni anglash va rivojlantirish borasida partiyalararo muloqot diologini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Siyosiy fanlarda Markaziy Osiyo mintaqasiga doir muammolarni hamda milliy o'zlikni anglash va rivojlantirishda muloqot diologini o'rgangan olimlarga K.Snoun, A.Xenrikson, J.Melisen, R.Feltxem, S.Cevik, R.Felltham, J.Hart, J.Melissen, Y.E.Vasilenko, V.Kvint, N.V.Koksharov, V.Qo'chqorov, Q.Nazarov, I.Ergashev, D.Sayfullayev, S.Jurayevlar o'rganishgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud davlatlarda faoliyat yurituvchi siyosiy partiyalarning o'zaro hamkorligining tashkiliy jihatlarida "xalq diplomatiyasi"ning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq diplomatiyasi xalq vakillari manfaatlarini ifodalab, xalq faolligida hukumatning maqsadlarini amalga oshirishi yoki kengroq aytganda, xalqaro munosabatlarni amalga oshirishda xalq vakillarining davlat diplomatiyasi bilan birgalikda faol ishtirok etishini ifodalaydi. O'sha davr xalq diplomatiyasi davlat tashqi siyosatini xorijga yetkazish, madaniyat, ta'lim, media, ko'rgazmalar, almashuv dasturlari orqali hamkorlikni kengaytirib, davlatning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilishni ifodalagan. Aynan xalq diplomatiyasida nodavlat notijorat tashkilotlarning hamkorligi ko'rinishida ham keng namoyon bo'lganligi ahamiyatlidir. Bu ta'riflarda xalq, ommaviy diplomatiya va yumshoq kuch xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Jan Melisenga ko'ra, xalq diplomatiyasi zamonaviy muzokaralardan ancha oldin diplomatik amaliyotda qo'llanilib, u asosan ta'lim va madaniyatni targ'ib qilishda eng samarali vosita sanalgan [7]. Markaziy Osiyo mintaqasida madaniy aloqalarni rivojini ta'minlashda siyosiy partiyalarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish zaruratga aylanib borayotganligi diplomatiyaning mazkur yo'nalishiga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Shuningdek, yumshoq kuch konsepsiyasi uzoq muddatli strategik maqsadlarga qaratilgan tashqi siyosatni madaniy diplomatiya vositasida amalga oshirish mexanizmi bo'lib, diplomatik aloqalar yordamida davlatlar va xalqlar o'rtasida tinchlik, madaniy va o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirishga ko'maklashish, ijtimoiy va iqtisodiy gumanitar yordam ko'rsatish kabilar orqali mazkur davlatda yoki xalqqa o'z ta'sirini oshirib borish va rolini kuchaytirishdan iborat.

Richard Feltxemga ko'ra, xalq diplomatiyasi asosan an'anaviy diplomatiyaga tayanib, xalq vakillarining fikr-mulohazalarini keng namoyon etadi. Xalq diplomatiyasi konferensiya, ilmiy markazlar, ta'lim muassasalar, ilmiy nashrlar va diplomatik tadbirlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu xorijdagi diaspora va vatandoshlarni o'z tarixiy vatanlari bilan bog'lash, milliy til va madaniyatni saqlash, ularning manfaatlarini himoya qilish kabi maqsadlarda ko'priq vazifasini bajarishga ham xizmat qiladi [9].

Y.Vasilenkoga ko'ra, xalq diplomatiyasi aslida ko'p qirrali diplomatiya sanalishi bilan boshqa diplomatiyalardan farq qiladi. Xalq diplomatiyasining asoslaridan biri bu madaniy (ta'lim, ilm-fan, san'at, sport) aloqalardir, ya'ni — madaniy diplomatiya orqali xalq diplomatiyasi xalqaro munosabatlarda keng namoyon bo'ladi. Chunki madaniyat orqali millat o'zligini dunyoga namoyish etadi, o'z qadriyatlarini va g'oyalarni keng tarannum etib, targ'ib qiladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotimizda tizimli-tarkibiy, funksional, institutsional, obektivlik hamda kompleks yondashuv metodologiyalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yuqorigidagi ilmiy — nazariyalardan kelib chiqadigan bo'lsak, siyosiy partiyalarning Markaziy Osiyo mintaqasiga xos bo'lgan muammolar,

xususan, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik muammolarga yechim topish hamda ularning salbiy ta'sirini yumshatish uchun o'zaro hamkorligi "xalq diplomatiyasi", "parlament diplomatiyasi" ko'rinishlarida rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ham mintaqa davlatlari hukumatlararo, shuningdek, parlamentlararo hamkorlikni yo'lga qo'ygan va rivojlantirib bormoqda, uni yanada rivojlantirish tabir joiz bo'lsa yangi bosqichga ko'tarish zamon talabidir.

Markaziy Osiyo davlatlari bir — biri bilan qadimdan geosiyosiy, geotarixiy, geoiqtisodiy va geomadaniy jihatdan chambarchas bog'liq bo'lgan. Mintaqada turkiy, arab, forsdiy va boshqa xalqlar diniy, madaniy jihatdan bir — biriga yaqin, uyg'un holda yashab kelishgan. Zamonaviy dunyoda ham diniy, madaniy omillar mintaqa xalqlarining bir — biriga yaqinlashtirib kelmoqda. Mazkur yo'nalishlarda hamkorlikni mustahkamlashda siyosiy partiyalarning rolini oshirish zarur. Madaniy qadriyatlarining himoyachisi bo'lgan konservativ partiyalar sonini oshirish mintaqada yashovchi xalqlarning o'zligini saqlab qolishga uni avlodlarga butun holda yetkazishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Umuman olganda ayrim ma'lumotlarda ketirilishicha bugungi kunda turkiy xalqlar yevropaning 30 dan ortiq davlatlarida 200 mlnni tashkil etadi [6.]. Yevropada yashovchi turkiy xalqlarning madaniy qadriyatlariga ommaviy g'arb madaniyatining ta'siri natijasida ularning yemirilishiga yangicha gibrib madaniyatlarining paydo bo'lishiga olib kelishi bu esa o'z navbatida davlatning milliy o'zligini yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunday salbiy xodisalarni oldini olish uchun ularning asl vatani bo'lgan davlatlarda madaniy qadriyatlarini asrash, ularni keng targ'ib qilish hamda o'zaro aloqadorlikni mustahkamlash choralari ko'rilishi zarurdir.

Turkiy davlatlar tashkiloti dastavval tashkil etilgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi bo'lib, bu mintaqalararo tashkilot sifatida jahonda turkiy xalqlar etnolingvistik birligini namoyon etadi. U dastlab, 1993 yilda jahondagi turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarni birlashtirish maqsadida Qozog'istonning Almati shahrida Xalqaro Turkiy davlatlar madaniyatlarini tashkiloti sifatida tashkil etildi. Kengash hududi 4 mln.kv.km, aholi 145 mlnni, YAIMning umumiy qiymati 1.13 trln dollarni tashkil etadi [8].

Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar mustaqillikka erishilgach milliy o'zlikni mustahkamlashga e'tibor qaratilgan millat sifatida erkinlikni mustahkamlashdagi asosiy omillardan biri sifatida milliy o'zlikni anglashga urg'o' berildi. Xususan, O'zbekistonda ham milliy o'zlikni anglash uchun uzoq yillar mobaynida millat hayotidan siqib chiqarishga harakat qilingan milliy qadriyatlarini qayta tiklash, uni mustahkamlash, ma'naviy-ma'rifiy sohani jonlantirish va rivojlantirish zarur edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir", degan fikrlari milliy o'zlik masalasida tarixiy merosning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib berdi.

Inson to'g'ilibdiki, u o'z hayoti davomida o'zligini anglashga, o'zi uchun muhim bo'lgan qadriyatlarini topishga harakat qiladi.

"O'zlikni anglash — insoning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushuncha. O'zlikni anglash jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri anglash, ijtimoiy tajribalardan foydalanish qonuniyatlarini bilish, Vatan, millat oldidagi mas'uliyat tuyg'usi hamdir. O'zlikni anglash mudom tarixiy rivojlanib boradigan shakl va ko'rinishlarda, turli

darajalarda namoyon bo'ladi. Uning birinchi shaklida inson his etish orqali o'zini tabiatdan, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan ajrata biladi. O'zlikni anlashning ikkinchi shakli yanada yuqori darajada namoyon bo'lib, unda inson o'zini biror-bir jamoa, u yoki bu madaniyatga tegishli ekanligi orqali anglaydi. Va nihoyat, uchinchi, eng yuqori daraja – o'zini “men” orqali boshqalar nuqtai nazaridan baholashi, erkinligini his etgan holda har bir xatti-harakatiga bo'lgan mas'uliyatni his etishi, o'zi qilayotgan ishlarining to'g'ri-noto'g'riligi, haq yoki nohaqligini nazorat qila bilishidir” [4].

Siyosatshunos olim V.Qo'chqorov “o'zlikni anglash” va “milliy o'zlikni anglash” tushunchalarining mohiyatini tahlil qilib, qo'yadigan ilgori suradi: “O'zlikni anglash kishining borliqda o'z o'rini bilishi, ijtimoiy munosabatlarda o'z “men”i va hayotiy maqsadlarini boshqa “men”lar hamda ularning hayotiy maqsadlari bilan munosabatida namoyon bo'ladigan individual jihatlarining idrok etilishi sifatida qaraladi. O'zlikni anglashning muayyan darajasi milliy o'zlikni anglashdir. Milliy o'zlikni anglash – millat va har bir millat vakilining umumiy madaniy negizga, til, madaniyat, tarixiy meros, ruhiyatga, urf – odat va an'analarga mansubligini va o'z o'rini idrok etishdir” [5].

Milliy o'zlikni anglashda ma'naviy qadriyatlar muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Milliy o'zlikni anglashda milliy qadriyatlarning ta'sirini yanada oshirish o'z navbatida milliy madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishni taqozo etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2018 yil 28 noyabrdagi PQ 4038-sonli Qarori hamda 2020 yil 26 mayda «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF 6000-sonli Farmoni qabul qilingan. Xususan, mazkur Qarorda “madaniyat sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari va yo'nalishlari, ularni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlarning vakolatlari; madaniyat sohasida fuqarolar, millat va elatlarning huquq hamda erkinliklari; madaniy almashuv, xalqaro tashkilot va xorijiy davlatlar bilan hamkorlik, madaniyat obyektlari va san'at asarlarini ommalashtirish”ga e'tibor qaratilgan [1].

Milliy o'zlikni anglash to'g'risida gap ketganda, siyosiy partiyalarning mafkuralari milliy g'oya va qadriyatlar bilan to'yinganligi, unda milliy manfaatlar hamda ehtiyojlarning ustuvorligi asosiga qo'rilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday siyosiy partiyalarning mafkuraviy yo'nalishi konservatizm, spektrdagi ya'ni siyosiy maydondagi o'rni o'ng yoki o'ltra o'ngda joylashgan bo'ladi. Misol uchun O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi aynan milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlarni asrab avaylash, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazish muammolarini o'z dasturlarida akslantirgan.

Shuningdek, mazkur siyosiy partiyaning saylovoldi dasturlarida “Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot” shiori milliy – madaniy qadriyatlar hamda zamonaviy taraqqiyotning uyg'unligida jonajon O'zbekistonimizni qudratli davlat, xalqimizni faravon bo'lish yo'lida birlashtiruvchi da'vatdir” deb keltirib o'tilgan [1].

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining saylovoldi dasturida “Biz uchun “Qadriyat” – milliy urf-odat, an'ana va ko'p asrlik tariximizning chuqur ifodasi, voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy – ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish vositasidir” deyilgan [1].

Mazkur siyosiy partiya qadriyatlar asosidagi taraqqiyotga erishishni, milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashni o'zining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraydi. Jumladan, “bozor munosabatlari sharoitida “Saxovatli tadbirkor” va “Halol mansabdor” mezonlari asosida fuqarolarni rag'batlantirish va

ularni keng jamoatchilikka tanishtirish orqali jamiyatni qadriyatlar atrofida birlashtirishni” asosiy maqsad va vazifalari sifatida belgilagan [1].

Mintaqa davlatlari milliy o'zlikni anglash, qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash, o'zaro madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish barasida hamkorlikni kuchaytirishga ehtiyoj mavjud. Ayrim hollarda mintaqada yashab faoliyat yuritgan alloma, mutaffakkirlarning hududdagi qaysi millat yoki davlatga tegishliligi borasida tortishuvlar ko'zga tashlanmoqda. Aynan mana shunday baxsli munosabatlarni oydinlashtirish borasida mintaqa davlatlari siyosiy partiyalari dasturlarida hamkorlik aloqalariga e'tibor qaratilishi zarur deb bilamiz.

Shuningdek, millatlarining kelib chiqishi, shakllanishi o'zaro madaniy aloqalarini yoritib berishga qaratilgan audio, videoroliklar yaratilib ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib qilinishi, o'zaro tushunish va birdamlikni mustaxkamlashga xizmat qiladi.

Milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarni mustaxkamlash, madaniyatni rivojlantirish borasida mintaqa davlatlari siyosiy partiyalaridan konservatizm g'oyalari qo'llab quvvatlovchi, spektrdagi o'rni o'ng yoki o'ng markaz bo'lgan siyosiy partiyalardan O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (o'ng), Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal–demokratik partiyasi (o'ng markaz), Qozog'iston “Aq Jol” demokratik partiyasi (o'ng markaz), Qozog'iston “Respublika” partiyasi (o'ng markaz), Qirg'iziston “Ata-Jurt” partiyasi (o'ng markaz), Qirg'iziston «Ishenim» partiyasi (o'ng markaz), «Intimak» Qirg'iziston siyosiy partiyasi (o'ng markaz), “Mekenchil” siyosiy partiyasi (qirg'izcha.- vatanparvar) (o'ng), “Yagona Qirg'iziston” partiyasi (o'ng), Tojikiston Xalq demokratik partiyasi (markazga yaqin o'ng), Tojikiston Demokratik partiyasi (o'ng markaz), Turkmaniston demokratik partiyasi (o'ng markaz), Turkmaniston sanoatchilar va tadbirkorlar partiyasi (o'ng markaz) kabilarning istiqbolida o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi va mustaxkamlanishi ulkan imkoniyatlar eshigini ochishi bilan izoxlanishi mumkin.

Umuman, mintaqa davlatlarida faoliyat yuritayotgan har bir siyosiy partiyaning madaniy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi, milliy o'zlikni anglagan holda mintaqaviy birdamlikni ta'minlash borasidagi strategiyalari mavjud bo'lishi zamon talabiga aylanib bormoqda. Siyosiy partiyalarning strategiyalari bu uzoq va yaqin istiqbolga muljallangan bo'lishi, ko'lami nuqtai – nazaridan keng yoki muayyan yo'nalishni qamrab olgan bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Umuman milliy o'zlikni anglashda malaniy hamkorlik aloqalarining roli beqiyosdir. Bu tarixan kelib chiqishi va rivojlanishi bir – biriga yaqin bo'lgan millatlarni madaniy qadriyatlarini o'zaro bir – birini to'ldirish imkonini beradi. Til, madaniyat sohasida ayniqsa yuqoridagi omil muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida dunyo siyosiy maydonida davlatlararo, mintaqalararo kurash, raqobat keskinlashmoqda. Jahonning qudratli davlatlari siyosiy maqsadlari yo'lida boshqa davlatlarga bosim qilishi, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'sirini kuchaytirishga o'rinishlar kuzatilmog'da. Ana shunday murakkab sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston o'z mustaqilligini yanada mustahkamlash, uni tizginlashga bo'lgan urinishlarni ayniqsa jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omillar hisoblangan, milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlarni ildizlarini qo'porishga bo'lgan hatti-harakatlarga munosib zarba berish uchun doim hushyor, safarbar holatda turishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ma'naviy yetuk, jismonan chiniqqan, milliy qadriyatlarga sodiq, o'zining mustaqil fikriga ega barkamol yosh avlodni tarbiyalashga e'tibor qaratishimiz lozim. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda siyosiy partiyalarning ishtirokini, xususan, ular

qoshidagi “Yoshlar qanotlari”ning rolini oshirish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 28.11.2018 йилдаги ПҚ-4038-сон. <https://lex.uz/docs/4084926>
2. “Миллий Тикланиш” демократик партиясининг 2025-2029 – йилларга мўлжалланган “Сайловолди дастури”. 2024 – йил 5-сентябр “Миллий тикланиш” демократик партиясининг IX Қурултойида тасдиқланган. <https://mt.uz/saylovoldi-dastur>
3. Василенко Е. Культурная дипломатия как инструмент «мягкой силы» государства // Перспективы. Электронный журнал. – 2016. №1 (5). С. 68.
4. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ф.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. Б.-704.
5. Кўчқоров В. “Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётининг демократиялашиши жараёнида миллий ўзликни англаш муаммоси” сиёсий-фалсафий таҳлил Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2009. 12-б.
6. Turkic peoples <https://www.britannica.com/Turkic-peoples> turklar, o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, ozarbayjonlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlar va boshqirdlar, chuvashlar, qarachoqlar, tatarlar, tuvalar, saxalar, oltoylar, kabardinbolqorlar, xakaslar, qumiqlar, gagauzlar va boshqalar.
7. Jan Melissen. Soft Power in International Relations. Palgrave N.Y. Macmillan. 2005. P. -22.
8. Senem Cevik. Turkey Soft Power. Macmillan. Ankara. 2015. P. -10; Turkic Speaking States. 2021. <https://www.turkkon.org/en>
9. Felltham R. Diplomatic Handbook – London, 2003. P.-143.